

## MAQOL VA MATALLAR TARJIMASIGA DOIR (O'ZBEKCHA-RUSCHA LUG'AT MISOLIDA)

**Mexlieva Dilnoza Usmonovna**

**FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

**katta ilmiy xodimi**

**[dilnozamekhli@gmail.com](mailto:dilnozamekhli@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15125847>**

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek xalq maqol va matallarini rus tiliga tarjima qilish usullari borasida so'z yuritilgan. Maqol va matallar har bir xalqning boy merosi bo'lib, ba'zi maqol va matallarda milliy mentalitet yaqqol namoyon bo'lishi, ularni tarjima qilishda duch kelinadigan muammolar xususida fikr bildirilgan, maqollar va matallar tarjimasida so'zma-so'z, mazmunini saqlab qolgan holda yoki aynan o'xshash ekvivalentga almashtirish, kerak o'rinlarda izoh berish kabi usullarga e'tibor qaratilgan. Tarjimada milliy koloritni saqlash eng muhim vazifalardan biri bo'lib, maqol-matallar tarjimasida ham bu jihatlar inobatga olinishi zarur.

**Kalit so'zlar:** maqol, matal, tarjima lug'at, ibora.

**Аннотация:** В статье говорится о методах перевода узбекских народных пословиц и поговорки на русский язык. Пословицы и поговорки являются богатым наследием каждого народа, в некоторых пословицах и поговорки проявляется национальный менталитет, выражаются проблемы, возникающие при их переводе и уделяется внимание приемам перевода пословиц и поговорки слово в слово, сохранения содержания или замены его аналогичным эквивалентом, комментирования в необходимых местах. Сохранение национального колорита при переводе – одна из важнейших задач, и при переводе пословиц необходимо учитывать эти аспекты.

**Ключевые слова:** пословица, поговорки, словарь перевода, фразеология.

**Annotation:** The article discusses methods of translating Uzbek folk proverbs and sayings into Russian. Proverbs and sayings are a rich heritage of each nation, some proverbs and sayings reveal national mentality, express problems that arise during their translation and pay attention to the methods of translating proverbs and sayings word for word, preserving the content or replacing it with a similar equivalent, commenting in necessary places Preserving national character during translation is one of the most important tasks, and when translating proverbs, it is necessary to take these aspects into account.

**Keywords:** proverb, sayings, translation dictionary, phraseology.

Ikki tilli tarjima lug'atlari xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarni yanada mustahkamlash, o'zga tilni qulay o'rganish, xalqning milliy ijtimoiy hayot tarzini yaqindan bilish imkonini beradi. Shu ma'noda, tarjima lug'atlarda milliy koloritni aks ettiruvchi terminlar, leksik birliklar, iboralar va maqol-matallar tarjimasi murakkab jarayon bo'lib, tarjimon mutaxassislardan nafaqat har ikki tilni, har ikki til xususiyatlarini, shu tillarda so'zlashuvchi xalqlarning milliy o'ziga xos jihatlaridan xabardor bo'lishni taqazo qiladi. Ammo, umumiy qarashlar va holatlarni ifodalaydigan tushunchalar, birikmalar tarjimasi murakkablik tug'dirmaydi, chunki bu iboralar umuminsoniyatga qaratilgan bolib, ibratli xulosa hamma : "Avval o'yla, keyin so'yla – Сначала подумай, потом говори. Avval yo'ldosh, keyin yo'l –

Сначала попутчик, а потом путь.. Ishga desa ayyor, oshga desa tayyor – na raboty priglasyayut – on xitryt, a na edy – tut kak tut kabi.

Ammo, har bir xalqning o'ta milliy, ijtimoiy muhitiga, shart-sharoitlariga, milliy xarakteriga mos gap-so'zlari, iboralari bo'ladiki, bu birliklarni har qanday mohir tarjimon ham to'liq ifodalab bera olmaydi. Ya'ni, milliy sharoit tufayli yuzaga kelgan odatlar, narsa - hodisalar faqat o'ziga xos bo'lsa, ular tarjima qilinmaydi, masalan, mahsi, do'ppi, chopon, so'ri, yaxtak, choyxona, xolva, xolvaytar, beshik kabi yuzlab so'zlarimiz va bu so'zlar bilan bog'liq iboralarimiz borki, bular madaniy atamalar bo'lib tarjima qilinmaydi, o'quvchiga tushintirib beriladi. Xuddi shunday tilimizda barqaror birikmalarga aylanib qolgan iboralardan biri matallardir. Milliy Qomusimizda "matal" shunday ta'riflanadi: "Matal – muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda, ibora. Matallarda o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so'z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi"<sup>1</sup>. Matallar tarjimasi ham nozik masala bo'lib, boshqa xalqda aynan mos varianti bo'lmagani bois, asosan, so'zma-so'z tarjima qilinadi, ma'nosi izohlanadi. Masalan, "O'zbekcha-ruscha lug'at"da keltirilgan quyidagi matallar ham faqat bizning xalqimizga xos bo'lib, tarjima orqali tushintirishga harakat qilingan: "**Haftada hayit-u kun ora odina** - был бы праздник каждую неделю и выходной через день". "**Halvo degan bilan og'iz chuchimas** (букв. от того, что скажешь "халва", в рту сладко не стáнет; *соотв.* сладким словом брюхо не насытишь; о меде хоть год думай, но во рту сладко не б́дет". **Hali bo'zchi, hali dukchi** - То он ткач, то он веретёнщик; *соотв.* и швец, и жнец, и в дуду игрец". **It hurar, karvon o'tar** - Собака ласт, караван прохóдит; *соотв.* собáка лáет, вéтер нóси" kabi matallar sof milliy tushunchalarni, milliy xarakter xususiyatlarimizni ifodalaydi va bunday iboralarni aynan anglatadigan birlik boshqa hech qaysi xalqda yo'q.

Xalq og'zaki ijodining barcha xalqlarda keng tarqalgan namunalaridan biri bo'lmish maqollar tarjimasi ham tarjimondan yuksak salohiyat talab qiladi. Har bir xalqning tarixiy-madaniy xususiyatini ko'rsatuvchi maqollar uzoq yillik tajribalar natijasi bo'lib, millatning o'tmishi, ma'naviyati, turmush tarzi bilan bevosita bog'liqdir. Faqat bir millatga xos an'ana va qadriyatlar qisqa maqollarda ibratli xulosa tarzida aytiladiki, bu ibratli fikrlar butun insoniyatga qaratilgani bilan bebahodir. Rus yozuvchisi L.N. Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to'xtalib: "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman"<sup>2</sup>, deb yozgan edi. Haqiqatdan, maqollarda xalqning o'tmishi, urf-odat, an'analari, ma'naviyati bo'y ko'rsatib turadi.

O'zbekcha-ruscha lug'atda maqollar zarur o'rinlarda so'zni izohlashda illyustrativ misol sifatida berilgan. Masalan, "Bir kunlik yo'lga chiqsang, bir haftalik oziq ol" maqoli umumxalqqa tegishli bo'lib aslida qaysi xalq yoki millat tomonidan aytilgani noma'lum, tarjimasi qiyinchilik tug'dirmaydi, hamma uchun birdek tushinarli *Если собираешься в путь на один день, берй (с собой) недельный запас провизии tarzida o'girilgan.* "Xalqning molini yegan halqumidan ilinar" maqoli "Тот, кто присваивает народное добро — б́дет схвачен (пóйман) за глотку tarzida, "Hamma dardga bor davvo, sevgi dardi bedavo – Ко всему есть с нáдобье, но недýт

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6-жилд, 2003. – Б. 279.

<sup>2</sup>Qarang: Шомансудов Ш. Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз? –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988, –Б. 6.

любви неизлечим” tarzida, “Haqni aytasang uradilar, xushomadni suyadilar – За правду бьют, за лесть любят” tarzida “Haqiqat o’tda yonmaydi, suvda cho’kmaydi – Правда в огне не горит, в воде не тонет tarzida tarjima qilingan.

Taniqli tarjima nazariyotchisi A.V. Fyodorov o’zining “Введение в теорию перевода” (Tarjima nazariyasiga kirish) nomli asarida maqol va boshqa frazeologik birliklarni rus tiliga tarjima qilishning quyidagi usullarini ko’rsatadi:

– Maqol va boshqa frazeologik birliklarni tarkibidagi so’zlar moddiy ma’nosini aynan saqlagan holda o’girish; Masalan, “Qo’ychivon ko’p bo’lsa qo’y harom o’ladi - Если пастухов много, то овцы дохнут”. “Hayot – yaltiroq, umr – qaltiroq - Жизнь – прекрасна, на век человеческий корочок”. “Hiyla bilan arslon tutilar, kuch bilan sichqon tutilmas - Хитростью ловят (даже) льва, силой не поймешь (даже) мыши”. Oziqli ot horimas - Сытая лошадь не устанет”. “Hovli olma, qo’shni ol - Приобретай не двор, а соседа; выбирай не дом, а соседа”. “Er yigitga yetmish turli hunar oz - Молодцу и семидесяти ремесел мало” kabi.

– Asl nusxadagi maqol va boshqa frazeologik birliklar tarkibidagi so’zlarning moddiy mazmunini yoki shaklini bir qadar o’zgartirib tarjima qilish; Masalan, “Yaxshi topib gapirar, yomon qorib - хороший человек скажет по-хорошему, плохой – по-плохому”. “Arzon beillat emas, qimmat behikmat emas – Дешёвый не без изъяна, а дорогое не без “изюминки”; *sootv.* дорого, да мило, дешёва, до гнило.

– Asl nusxadagi maqol va boshqa frazeologik birliklarni asar tarjima qilinayotgan tilda haqiqatda mavjud bo’lgan muqobil bilan almashtirish.

Maqollarni tarjima qilish jarayonida uning muqobil variantidan, ya’ni tarjima qilinayotgan tilda ma’nosiga ko’ra muvofiq keluvchi boshqa bir maqoldan foydalanish ham mumkin. Bunday muqobilli maqollar umumbashariy proverbial frazeologizmlar, ya’ni o’zbek va rus hamda boshqa xalqlar ijodida bir-biriga ma’no jihatidan mos bo’lgan internatsional maqollar hisoblanadi. Ular o’zlarida umuminsoniy, xususan, barcha millatga xos insoniy fazilatlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Demak ular ma’lum bir xalqqa xos milliy maqollar hisoblanmaydi, negaki, bunday mazmundagi maqollarni barcha tilda uchratish mumkin. Masalan, “Haqiqat o’tda yonmaydi, suvda cho’kmaydi – Правда в огне не горит, в воде не тонет”, “Hamma dardga bor davo, sevgi dardi bedavo – Ко всему есть с надобье, но недёт любви неизлечим” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Ba’zi maqollar bir xalqdan ikkinchisiga aynan transformatsiya bo’lgan bo’lsa, ba’zilar faqat bir xalq, ulusga tegishli. bu maqollarni tarjima qilish biroz qiyinchilik tug’diradi. Quyidagi maqollar faqat o’zbek xalqiga xos bo’lib, bu maqollar tarjimasi asosan so’zma-so’z beriladi, yanayam tushinarli bo’lishi uchun izohlanadi: Masalan, “Halvo degan bilan og’iz chuchimas (букв. от того, что скажешь “халва”, во рту сладко не станет; *sootv.* сладким словом брюхо не насытишь; о меде хоть год думай, но во рту сладко не будет.. “Bosh omon bo’lsa, do’ppi topiladi – Была бы целá голова, а тубетейка найдётся” “Mulla bilganin o’qir, bo’zchi bilganin to’qir- Грамотный читáет то, что знáет, ткач ткёт то, что умéет (*m. e. каждый делает то, на что он способен*). “Ayoz, o’tgan kuning unutma, eski chorig’ingni quritma – Аяз, не забывай свои прошлые дни, не уничтожай свои старые чарыки (*основана на предании о пастухе Аязе, ставшем царём и вещавшем в комнате свои старые чарыки – опорки,*

чтобы не возгордится) “Oshing halol bo’lsa, ko’chada ich - Если ты добыл пищу чётным трудом, то ешь её хоть на улице kabi.

Maqol va matallarda xalqning uzoq yillik o’tmishi, dunyoqarashi, ajdodlarimizning misqollab yiqqan madaniyati-ma’naviyati aks etgan bo’lib, inson boshidan o’tkazgan tajribalari, xulosalari, voqelikka munosabati birgina ixcham iboralarda mujassam. Bunday ibratli xulosalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, olib o’tish, mazmunan yetkaza olish har bir xalqning ziyoli vakillarining yuksak vazifalaridan biri, insoniyat taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi bir vositadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:**

1. Ўзбекча-русча луғат/ С.Ф.Акобиров ва Г.Н.Михайлов таҳрири остида –Тошкент: УзСЭ Бош редаксияси, 1988. – 727 б.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6-жилд, 2003. – Б. 279.
3. Шомансудов Ш. Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз? –Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988, –Б. 64.

